# Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi

// 31.01.2024
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/ma-naviyat-va-ma-rifat-kengashining-kengaytirilgan-yig-ilish




Bugun “O‘zkimyosanoat” AJda Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda Jamiyat rahbariyati va markaziy apparat xodimlari, tizim korxonalari mas’ullari ishtirok etishdi.

Yig‘ilishda dastlab tarmoq korxonalarining 2023-yilda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning “yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalar ijrosi tahlil qilindi. 2024-yil uchun ma’naviy-ma’rifiy ishlar samarasini oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.




Shuningdek, har bir korxona kutubxonasi fondini badiiy va sohaga oid kitoblar bilan boyitish, gender tenglikni ta’minlashda olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida so‘z bordi. Xususan, “Eng faol innovator ayol” tanlovida korxona xotin-qizlari ishtiroki qamrovini kengaytirish muhokama qilindi.

Shu bilan birga, ishchi xodimlar o‘rtasida ichki turizmni rivojlantirish uchun munosib shart-sharoitlar yaratish va respublika bo‘ylab sayohatlar tashkil etish, yosh xodimlarning g‘oya va takliflarini qo‘llab-quvvatlash va amalda tatbiq etish masalalari ko‘tarildi.




Har bir korxonalarda yangi, zamonaviy jihozlangan, barcha qulayliklarga ega bo‘lgan “Kimyo sanoati tarixi idoraviy muzey”larini tashkil qilish tartibi va talablarini ishlab chiqish bo‘yicha topshiriqlar berildi.


Uzkimyosanoat
Ammofos-Maxam
Navoiyazot AJK
"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ
UKSL
E. Abdullayeva
QFK VKS2
Кунградский содовый завод KSZ
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26